

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**KASBIY TA‘LIM TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DAVLAT BUDJETI
FANIDAN MALAKA TEST SINOVU TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

KASBIY TA'LIM TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN DAVLAT BUDJETI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida davlat budjeti fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, kasbiy ta'lim, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Davlat budjeti

1. Davlat budjeti, Davlat budjeti tuzlishi va budjet tizimi;
2. Davlat budjetining huquqiy asoslari;
3. Davlatning budjet siyosati;
4. Davlat budjetini boshqarish;
5. Budjetlararo munosabatlar va Budjet tasnifi;
6. Davlat budjeti daromadlar va xarajatlar tizimi;
7. Budjet jarayoni;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Davlat Budjeti, Davlat Budjeti tuzilishi va Budjet tizimi	Fanning maqsadi vazifalarini, mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, funksiyalari tamoyillarini, Davlat Budjetining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi o'рни va ahamiyatini bilishi lozim	4 ta
2	Davlat budjetining huquqiy asoslari	Budjet siyosatining maqsadi va vazifalarini, Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Budjet siyosatining rivojlanish bosqichlarini bilishi lozim.	7 ta
3	Davlatning Budjet siyosati	YaIM, milliy daromad, iqtisodiy o'sish; inflyatsiya va ishsizlik turlari; fiskal va monetar siyosat; iqtisodiy sikllarni tahlil qilish; makro ko'rsatkichlar bo'yicha jadval va grafiklarni sharhlashni bilishi lozim.	6 ta
4	Davlat Budjetini boshqarish	Davlat Budjetining bosqichlarini boshqarish obektlari va subektlarini, ularning guruhlanishi, Moliya vazirligining Budjet sohasida boshqarishdagi o'рни bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	8 ta
5	Budjetlararo munosabatlar va Budjet tasnifi	Byudjet darajalari o'rtasidagi daromadlar va xarajatlarning taqsimlanish Budjetlararo munosabatlarni tashkil etish bosqichlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
6	Davlat budjeti daromadlar va xarajatlar tizimi	Budjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni, manbalari, shakillanishida soliqlarning ahamiyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	5 ta
7	Budjet jarayoni	Budjet jarayoni bosqichlari, Budjet loyhasini tuzish, ko'rib chiqish, nazorat qilish, Budjet jarayonlari ishtirokchilari, ularning vakolatlari to'grisida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	4

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%

2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Davlat Budjeti: O'quv qo'llanma J.R.Zaynalov, B.S.Xusanov, Sh. M.Latipova. Iqtiso-Moliya 2021 y.

2. Vaxobov A . Qosimov G, Budjet soliq siyosati yahlitligi. Iqtisod-Moliya 2005y

3. Do'stmurodov R., Karimov A., Musaev A., Fayzihev Sh. Moliya. T.: "Voris Nashriyot"-2012 y

4. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. T.: – “SHarq” NMAK 2004 y.

5. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*